



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



MAVZU: Xalqaro ilmiy konferensiyalar uchun tezis tayyorlashda akademik yozuv qoidalari, anjuman mavzusiga mos kelish tamoyillari va taqdimot samaradorligini oshirish usullarining ilmiy yondashuvlari (IMRAD talablari)

Muallif: A.N. Elmurodov

Toshkent-2026 >

Nima uchun bu muhim?

Ko‘plab yosh tadqiqotchilar ilmiy natijaga ega bo‘lsalar ham, tezislarini rad etiladi. Asosiy muammo tadqiqot natijasida emas — tezisning **akademik yozuv qoidalari, tuzilishi va konferensiya mavzusiga moslashtirilmaganligida**.

Maqsad

Ilmiy natijalarni xalqaro standartlarga mos tarzda taqdim etish

Muammo

Tezis talablarga mos kelmasligi sababli rad etilishi

Yechim

IMRaD modeli va akademik yozuv tamoyillari



Xalqaro konferensiya va tezis nima?

Konferensiya

Olimlar tadqiqot natijalarini taqdim etadigan, muhokama qiladigan va yangi ilmiy aloqalar yo‘lga qo‘yadigan platforma. Ko‘plab nufuzli konferensiyalar **IEEE**, **Springer**, **Elsevier** yoki **Scopus** bazalarida indekslanadi.

Tezis

Tadqiqotning qisqacha ilmiy tavsifi. Tezis **250–500 so‘zdan** iborat bo‘lib, quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- Muammo nima va nima uchun muhim?
- Qanday metod ishlatildi?
- Qanday natija olindi?
- Natijaning ilmiy ahamiyati nimada?



Akademik yozuvning 4 tamoyili

1

Aniqlik

Har bir jumla bitta fikrni ifodalashi kerak. “Natijalar yaxshi chiqdi” — ilmiy emas. “Algoritm aniqlikni 12,4%ga oshirdi” — akademik.

2

Mantiqiy izchillik

Har bir paragraf keyingisini tayyorlashi kerak:
Muammo → **Metod** → **Natija** → **Xulosa**
ketma-ketligi buzilmasligi shart.

3

Obyektivlik

“Menimcha”, “Biz o‘ylaymiz” kabi iboralar ilmiy uslubga mos emas. Natijalar dalillar bilan asoslanadi.

4

Ixchamlilik

Tezis hajmi cheklangan — har bir jumla ilmiy qiymatga ega bo‘lishi zarur.

Konferensiya mavzusiga mos kelish

Ko‘pchilik tezlari aynan shu bosqichda rad etiladi. Har bir konferensiya o‘zining **Theme, Topics, Scope** bo‘limlarini e‘lon qiladi.



Misol: Konferensiya mavzusi “Artificial Intelligence in Healthcare” bo‘lsa — oddiy matematik tenglamalar haqidagi maqola mos kelmaydi. Ammo **sun‘iy intellekt yordamida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish** yoki **matematik modellashtirishning tibbiyotdagi qo‘llanilishi** mavzusi mos keladi.

Shuning uchun tezis yozishdan oldin “**Call for Papers**” hujjati batafsil o‘rganilishi zarur.


Chunki aynan shu hujjatda:

- konferensiya nima;
- qaysi mavzular qabul qilinishi;
- qanday format talab qilinishi;
- yuborish muddati;
- baholash mezonlari aniq ko‘rsatiladi.




IMRaD modeli asosida tezis yozish

Tezis hajmi kichik bo'lsa-da, uning ichki mantiqi IMRaD modeliga asoslanadi.



IMRaD modeli tezisga aniq mantiqiy tuzilma beradi: kirishda muammo va ilmiy bo'shliq, metodda qo'llanilgan usullar, natijalarda raqamlar bilan asoslangan topilmalar, muhokamada esa ilmiy ahamiyat va amaliy qo'llanilish bayon qilinadi.



Tezisning tuzilishi

01

Sarlavha

Aniq, mavzuga mos va ilmiy sarlavha

02

Mualliflar

To'liq ism, tashkilot va elektron pochta

03

Annotatsiya va kalit so'zlar

250–500 so'z, mavzuni aks ettiruvchi kalit so'zlar

04

IMRaD elementlari

Kirish → Metod → Natijalar → Xulosa

Tezis yozishda uchraydigan xatolar

Mavzu mos kelmasligi

Konferensiya mavzusiga mos kelmaslik — eng ko‘p uchraydigan rad etish sababi

Ilmiy yangilik yo‘qligi

Adabiyotlar tahlilining yo‘qligi va ilmiy yangilikning ko‘rsatilmasligi

Natijalar yo‘qligi

Raqamli yoki faktik natijalarning tezisda mavjud emasligi

Til va tuzilma xatolari

Grammatik xatolar, akademik ingliz tilining sustligi va IMRaD modelni ketma-ketligining buzilishi

Samarali taqdimot tayyorlash


Taqdimot talablari

- 10–12 ta slayd, har birida 5–6 qatordan oshmagan matn;
- Ko‘proq **grafik va diagrammalar**;
- Bitta slaydda **bitta asosiy g‘oya**;
- 10–15 **daqiqalik** taqdimot qilish.

Taqdimot qilish madaniyati

- Auditoriya bilan **ko‘z aloqasini** saqlash;
- Vaqt me‘yoriga **qat’iy rioya** qilish;
- Savollarga **qisqa va ilmiy** javob berish;
- Natijalarni **ishonch bilan** himoya qilish.

Taqdimot davomida ilmiy terminlardan to‘g‘ri foydalanish va haddan tashqari murakkab jumladan qochish tavsiya etiladi.



Xulosa

Sifatli tezis

Akademik yozuv qoidalariga amal qilgan, konferensiya mavzusiga to'liq mos keladigan va ilmiy yangilikni aniq ko'rsatgan bo'lishi kerak

IMRaD mantiqi

Modelning mantiqiy ketma-ketligini saqlagan tezis muvaffaqiyatli bo'ladi

Professional taqdimot

Muvaffaqiyat faqat tezis bilan emas, balki uni professional tarzda taqdim etish, ilmiy muloqot olib borish va o'z tadqiqotini ishonch bilan himoya qila olish ko'nikmalariga ham bog'liq



Har bir yosh olim nafaqat ilmiy izlanish olib borishi, balki xalqaro akademik yozuv madaniyatini, konferensiya etikasi va taqdimot mahoratini ham muntazam rivojlantirib borishi zarur.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

